

Referat

MAVZU: JAMOANI SHAKILLANTIRISH USLUBIYOTI.

REJA:

I. Kirish.

Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta'lim va kadrlar tayyorlash modelining asosiy maqsadi.

II. Asosiy qisim.

1. Jamoa haqida tushuncha.
2. Jamoa faoliyatini tashkil etish shakllari.
3. Jamoaning shakillanish bosqichlari.
4. Jamoaning rivojlanish darajasini tarbiyaga bog'liqligi.
5. Jamoaning shakillantrish va unda shaxsni tarbiyalash faoliyati.

III. Xulosa

IV. Adabiyotlar ro'yxati

Kirish.

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dastur”italablarini amalgam oshirish jarayonida yuqori malakali o’qituvchilarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo’yilmoqda.

Shunday ekan ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi , ijodiy izlanuvchan , yuqori malakali , turli soha egalarini tayyorlash kasb – hunar ta’limi oldiga qo’yiladigan talablarga mutunosib insonlar qilib shakllantirish ular shaxsiga yangicha yondashish hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy talablaridan biridir. Ayniqsa mehnat va kasb ta’limi sohasida bilim olgan bo’lajak mehnat va kasb ta’limi o’qituvchilari mehnat faoliyatini, mahoratini oshirish oily ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Bu muammoni hal qilishning birdan bir yo’li mehnat va kasb ta’limi o’qituvchilari mahoratini, faoliyatini oshirish eng avvalo pedagogik shart- sharoitlar hamda oily ta’lim muassasidagi barcha imkoniyatlardan kelib chiqib, o’ziga xos xususiyatlarni hisobga olinganligini ham nazarda tutadi.

Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta’lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadi. Ijtimoiy munosabatlar ko’laminining kengayishi o’sib kelayotgan avlodni o’ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayoniga har tomonlama yetuk etib tayyorlash vazifasini qo’ymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jixatdan yetuk inson hayotiy qarama-qarshilik, xususan, turli buzg’unchi g’oyalar ta’siriga tushib qolish, nosog’lom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o’zini saqlab qola oladi. Shuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omildir. O’zbekiston Respublikasida, demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin

fikrlay olishi ro'y berayotgan voqea-xodisalarga shaxsiy munosabtni bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borlikda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. qolaversa, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta'limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni e'tirof etadi: «Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir».Kamil insonni shakllanirish masalasi barcha davrda, ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra yetuklikning bosh mezonini – ilmlilik, bilimli bo'lishdi. Xozirgi kunda zamonaviy pedagogik jamoa bilan juda yaxshi ishlashni bilishi va yaxshi jamoa shakilantira olishi lozim.

1.Jamoa haqida tushuncha.

Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o'quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning etakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

O'quvchilar jamoasi o'ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir. quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so'z yuritamiz.


Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o'zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi.

Shu bois jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy xususiyat kasb etishi uning etakchi belgisi sanaladi.

Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mavjud bo'ladi. Muayyan jamoaning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jaomasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoa a'zolarini intilishlarini tushunish, jamoa oldiga qo'yilgan maqsad mohiyatini chuqur his etish hamda uning shaxsni shakllantirishdagi o'zni va rolini to'g'ri baholay olish jamoa a'zolarining umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsad, qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatlari o'rtasidagi birlikni namoyon etadi hamda jamoaning bo'linishga yo'l qo'ymaydi. Har bir jamoa o'zini-o'zi boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir. Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhining yagona ijtimoiy tizimini o'rnatishdagi usuli, ya'ni, jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblandi. Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa, xususan, uning a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlik, ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun qayg'urish, mazkur yo'lda amaliy harakatlarni tashkil etish hamda javobgarlik hissi qaror topadi. Demak, jamoa o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun ma'suliyat hissini uyg'otib borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, a'zolarida jamoaga mansublik hissini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari orasida o'zaro hissiy birlik (bir-birini yoqtirish hissi) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular o'qituvchiik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi ruhiy birlik mazmuni ular orasida hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur jihat bir tomondan jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan ishchanlik munosabati mazmunini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi shaxslar tomonidan jamoa a'zolarining xatti-harakatlari va intilishlarini muvofiqlashtirish yo'lida tashkil etilayotgan boshqaruv faoliyati mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.



jamoaning o'ziga xos xususiyatlari

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. O'quvchining jamoadagi o'rni uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Kasb-hunar kollej yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy etakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko'zga ko'ringan o'rinni egallagan holdagina u

chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (mikroguruhlar) umumjamoa ijtimoiy manfatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo'lgandagina jamoa o'zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o'zaro birikkan o'quvchilar guruhlar qanchalik aail va inoq munosabat asosida tashkil topgan bo'lmasin haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro hamkorlik va ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosaballarni qaror toptirishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga o'qituvchiik rahbarlikning yo'lga qo'yilishidir.

Shunday qilib, jamoa bir necha (a'zo) kishidan iborat guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida tashkil topadi. Jamoa tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat uning oldiga qo'yilgan maqsad mazmunini ifoda etadi. Jamoa a'zolari o'rtasida qaror topgan o'zaro birlik, shuningdek, ular o'rtasida tashkil etiluvchi munosabat jarayonidagi tenglik jamoaga rahbarlik qilish, jamoa a'zolarining guruh etakchilariga bo'ysunishlari, shuningdek, ular tomonidan jamoa oldidagi javobgarlik hissini anglashlari uchun zamin yaratadi.

Jamoa va uni shakllantirish o'qituvchiik faoliyatining maqsadi hisoblanidi. Muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan sub'ektlarning alohida namuna ko'rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bo'lib, ushbu vosita yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a'zosini tarbiyalash ijobiy samaralar beradi.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Kasb-hunar kollej jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in-bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar

jamoalari negizida kasb-hunar kollej jamoasi shakllanadi. Kasb-hunar kollej jamoasi ikki muhim bo'g'in o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O'quv yurtlari jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi - bu ijtimoiy ahvoli shuningdek, umumiy saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasi unga rahbarlikni olib boruvchi o'qituvchilar hamda o'quvchilardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi bo'lib, o'zini-o'zi nazorat qilish hamda o'zini-o'zi boshqarish huquqi, shuningdek, o'ziga xos psixologik muhit va an'analariga ega bo'ladi.

2. Jamoa faoliyatini tashkil etish shaklari.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir.

Maktablar tajribasida faoliyat odatda ommaviy, jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil etiladn. Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya'ni ularda o'quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi) o'z mohiyatiga ko'ra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadga (masalan, ma'ruza, konsert va hokazo) erishish uchun katnashchilariing o'zaro muomalasini nazarda tutmaydi. Biroq, bundan oldingi holda bo'lgani kabi, bu shakllarda bevosita tengdoshlar bilan birgalikda qatnashish ba'zi hollarda ularning faoliyatidagi ishtirokini faollashtiradi, boshqa hollarda aksincha bo'ladi. Bu ko'p jihatdan o'quvchilarning faoliyat mazmuniga, munosabatiga (ijobiy, passiv yoki salbiy) bog'liq bo'ladi. Faoliyatni amalga oshirish jarayonida uning maqsadiga erishish uchun o'quvchilarning o'zaro muomalaga kirishishlarini nazarda tutuvchi faoliyat shakllari jamoa shakllari deyiladi, bu muomala jarayonida o'quvchilar o'rtasida jamoa aloqalar vujudga keladi. Bu shakllar obyektiv jihatdan o'zida muomala uchun muayyan shart-sharoitlarga ega bo'ladi. Ular o'quvchilarga ishning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun vazifalarni o'zaro taqsimlab chiqish imkonini beradi, katnashchilar o'rtasida aloqa ta'sirining paydo bo'lishiga olib keladi. Misol tariqasida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning jamoa shakllaridan biri-bilimlarning ijtimoiy ko'rigini qarab chiqamiz. U biror fan bo'yicha o'tkaziladi. Unda ikkita parallel sinf yoki bir sinfdan ikkita komanda ishtirok etishi mumkin. Ko'rikning dasturi ishlarning har-xil turlaridan (yozma, og'zaki, grafik masalalar yechish, topshiriq uchun topshiriqlarni bajarish va shu kabilar) tashkil topadi, ularni bajarish umuman olganda 40-60 daqiqadan oshmaydi. Ko'rik oxirida hay'at a'zolari har bir qatnashchiga va umuman

komandadagi o`rtacha bahoni e`lon qiladi. Bu o`rinda bilish faoliyati bilan bog`liq bo`lgan muomala ko`rikka hozirlik ko`rish vaqtidayoq boshlanadi va uni o`tkazish jarayonida juda samarali davom etadi. Bunga sabab shuki, ko`rikka doir dastlabki topshiriqlar jamoadan tayyorgarlik rejasini muhokama etishni, vazifalarni taqsimlashpi yoki guruh bo`lib ishlashni talab qiladi. Ko`rik jarayonida muomala uning hamma qatnashchilar o`rtasida sodir bo`ladi, chunki ulardan har biri muayyan vazifaga ega bo`lib, o`z harakatlarini boshqa qatnashchilar bilan muvofiqlashtirgandagina vazifani muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Jamoa muomalani tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhliy ishdir, bunda mazkur ish bolalarshing tarkib jihatidan uncha katta bo`lmagan (eng ko`pi bilan kishi 5 ta bo`lishi kerak) guruhlarida amalga oshiriladi. Bunday kichik guruhlarda barcha a`zolar bir-birlari bilan bevosita muomalada bo`ladilar va bir-birlariga bevosita biror ta`sir ko`rsatadilar.

3. Jamoani shakllanish bosqichlari.

Jamoaning vujudga kelish uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o'qituvchi butun guruhga talab qo'yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a'zolari oldiga ma'lum talablarni qo'yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a'zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So'nggi (to'rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a'zosi o'z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo'yish layoqatiga ega bo'ladi. Jamoaga qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkiliy ko'rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, jamoa a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ular o'rtasidagi ijodiy hamkorlik, shuningdek, ularning xulq-atvori axloqiy kamolot darajalarini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonining mohiyatini inobatga olish zarur. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faolining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar. Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlash hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tafsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni, jamoa

o'z-o'zini boshqarishga o'tadi. O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrining muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o'tkazishga tiyyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususyat kasb etishini ko'rsatuvchi omillar sanaladi. Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida motiv (raqbat)larning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo'lishi, o'z burchlarini aniq va puxta bajarishi hamda o'z mavqelaridan noo'rin foydalanmasliklari juda muhimdir. Bu o'rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan "jamoaviydoni" deya bergan ta'rifini eslab o'tish joizdir. Jamoaviy faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsada, ayni paytda uning o'ziga ham oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Jamoaviy rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bardi-yu, jamoaviy rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfli tug'ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a'zolarining alohida faollik ko'rsatishga erishishlari zarur sanaladi. Jamoaviy rivojlanishining uchinchi bosqichi. Jamoaviy faoliyatida bu bosqich anchagina sarmahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashiga ko'ra, bu davrda butun jamoa "ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs"larga talab qo'ya boshlaydi. Jamoaviy ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoaviy hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xatti-harakati jamoaviy bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy,

axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi. Jamoaning har bir a'zosida, ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish ko'nikmasini hosil qila olishi jamoa a'zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlarning yuzaga kelishining sababi — uning a'zolarini ijobiy, madaniy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlaridir. Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichda ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda jamoa faoligina emas, balki jamoaning har bir a'zosi bir-birlariga nisbatan axloqiy mazmundagi talablarni qo'ya boshlaydilar. Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi. To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi. Bugungi kunda o'qituvchi-olimlar (L.I.Nikova va boshqalar) bolalar jamoasining rivojlanish jarayonining mohiyatini tahlil qilar ekanlar, uni qo'yidagi uch bosqichga bo'ladilar: a) jamoani dastlabki jipslashtirish; b) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish; v) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish. Jamoa hayotida muhim o'rin

tutuvchi har bir bosqichni ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning etakchi ahamiyatini ta'kidlaydi. A.S.Makarenko jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarining ichki xususiyatlariga katta ahamiyat bergan edi. Pedagog jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi: 1) major — doimiy tetiklik, o'quvchilarning faoliyat (harakat)ga tayyorliklari; 2) o'z jamoasining qadriyatlari mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash; 3) jamoa a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik; 4) jamoaning har bir a'zosida qaror topgan do'stona birlik; 5) tarbiyali, ishchan harakatga yo'llovchi faollik; 6) hissiyotni boshqara olish hamda muloqot odobiga amal qilish ko'nikmasi. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarni o'z ichiga oladi. Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi. O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi: 1. Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak. 2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim. 3. Jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim. 4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart. O'quvchi qo'yilayotgan talablar hajmi va tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtira olgan bo'lishi kerak. O'quvchilar jamoasiga nisbatan talablarni qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirish, talablarning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda o'quvchilar faoliyat, shuningdek, qo'yilayotgan talablarning bajarilish qolatini muntazam suratda nazorat qilib turishdan iborat. O'quvchilarni talablar bilan tanishtirish ko'pincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta'lim muassasasining direktori yoki o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari istiqbol

rejalari va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda ko'rsatish, keyinroq sinflar bo'yicha sinf majlislari yoki maxsus suxbatlarni uyushtirish asosida amalga oshiriladi. Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi. Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faol (aktiv)ni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi. Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'qituvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur. Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi. Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi

ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim. O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi. Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi. Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi: a) kundalik faoliyat an'analari; b) bayram an'analari. Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari), va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Bayram an'alariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, "Alifbe bayrami", "Mustaqillik bayrami", "Navro'z bayrami", "Xotira va qadrlash kuni" va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi. An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarida turlicha o'tkaziladi. O'quvchilar an'alar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lsalargina uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi. An'alarining yuzaga kelishida o'quvchilarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Maktab rahbariyati va o'qituvchilar o'quvchilar jamoasiga muayyan sanalarga bag'ishlab haddan ziyod ortiqcha tadbirni uyushtirish talabini qo'ymasligi zarur. Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchilar jamoasi yoki o'qituvchi tomonidan ushbu jarayonda o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda ish olib borish, ularni an'alarini davom ettirishga o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratishlari pedagogik jihatdan ijobiy natijalarni beradi. Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin. 1. Jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. 2. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi. 3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi. 4. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning

qo'yilishi, jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir. 5. Jamoaning mustahkam bo'lishi, uning a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Jamoaning rivojlanish darajasini tarbiyaga bog'liqligi.

Tarbiya usullarini tanlashda ularni jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdagi jamoa muvaffaqiyatning munosabatlarini rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. o'qituvchining esa yangi sinf bilan kun marta ish boshlanishiga to'g'ri keladi: o'z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, sinfni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba'zan esa maktabda vujudga kelgan vaziyat taqozosi bilan.

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va umuman jamoani tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar qo'yadi va o'z-o'zini nazorat qiladi.

Sinf rahbari va o'quvchilar jamoasi o'z niyatlari va ishlarida birgadirlar. Jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar juda qiziqarli bo'lib, bu ish sinf rahbarining asosiy ishi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilarni inoq jamoaga birlashtirgan mohir sinf rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulayayotgan kishi, shaxsning hayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda o'z vazifasini anglash siif rahbarining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boradigan faol va qat'iy faoliyatning zarur sharti hisoblanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o'quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatlarini tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi. Sinf rahbarinnng o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. Shuning uchun sinf rahbari dastavval: bolalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarini, o'zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazifalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini

aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi ularning o`qishdagi mo`ljallari nimalardan iborat, bu mo`ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashning eng ishonchli usuli – o`quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida, maktabda, maktabdan tashqarida o`zaro faol hamkorlik qilish darajasida kuzatishdan iboratdir. O`qituvchi jamoaning kuchli va zaif tamoyillarini aniqlash uchun pedagogik vaziyatlar vujudga keltirishni qo`llaydi. Lekin bunda shuni esda tutish kerakki, o`quvchi kamchiliklarini hamma o`rtasida yorqin namoyish uni ma`naviy halok etishi, qalbini jarohatlashi mumkin.

Shunday vaziyatlarni vujudga keltirish kerakki, ular salbiy tomonlarni emas, har bir bolada odatdagi sharoitda boshqalardan yashiringan ijobiy tomonlarini ham ochib bersin. Sinf rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bunda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qo`shimcha shart hisoblanadi. Bu xaqda gapirmasa ham bo`lardi, chunki bu shart pedagogik tamoyillardan biridir. Shu bilan birga ishni endi boshlagan o`qituvchi, ayniqsa sinf rahbari tarbiya usullarini emas, balki shakllarini tanlashda o`z tarbiyalanuvchilari yoshini hisobga olishi muhimdir. Bunda bir hil usullar talablar, topshiriqlar va hokazolar turlicha izohlanadi. Ta`lim jarayonida jamoa munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari sinf rahbarining katta e`tibor berishini talab etadi. Jamoa faoliyatida ko`proq muomala qilishga bo`lgan ehtiyoj yotadi. Darslarda bu ehtiyoj kam qondiriladi.

Agar darsdagi muomalaga bo`lgan ehtiyoj to`g`ri tushunilsa, uning negizida o`quvchilarning o`zaro yordami, darslarga birgalikda foydali tayyorgarlik ko`rish, kiziqishlar buyicha mashg`ulotlar tashkil etiladi. Ta`lim jarayonidagi jamoatchilik tuyg`usi ana shu, ya`ni birgalikdagi mehnat bolalarda katta qoniqish hosil qilish ijobiy kechinmadan boshlanadi. Shu tariqa o`zaro yordam tashkil etish sinfdagi jamoa munosabatlarini shakllantirishning yo`llaridan biridir.

O`qituvchi yana o`quvchilarni yosh xususiyatlarini, sinf jamoasining xususiyatlarini, uning shakllanganlik darajasini hisobga oladi, o`sha talablarida jamoa fikrining qo`llab quvvatlanishiga tayanadi. Jamoa rivojlanishining har qanday darajasida sinf rahbari muayyan usullardan foydalanib, jamoatchilik fikrini

shakllantirish to'g'risida maxsus g'amxo'rlik qiladi. O'quvchilar jamoasini shakllantirish jarayonini past darajadan yuqori darajaga boradigan vaqt davomidagi harakat, ijtimoiy talablar avval shaxsan sinf rahbaridan, o'qituvchidan faqat yakka bolalar, keyinchalik ko'pchilik bolalar idrok etadigan va nihoyat, barcha uchun va har bir bola uchun hayot qonuni bo'lib qoladigan tarzda jo'n tushunib bo'lmaydi. Hatto uyushgan jamoada ham jamoatchilik xususiyatlari zaif rivojlangan ayrim o'quvchilar bo'ladi. Sinf rahbari jamoa va har bir alohida o'quvchining tarbiyasi uchun ma'suldir. Shuning uchun uning jamoa tarzidagi va yakka tartibdagi shakllarini qo'shib olib borishi tarbiyaviy ishdagi o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Jamoaning shaxsga nisbatan yuksak talabchanligi kuzatiladi.

5. Jamoaning shakllantirish va unda shaxsni tarbiyalash faoliyati

Jamoa va jamoa orqali tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risida fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi. Bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhlaridan ajratib turadi.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o'zaro birlik uzviy maqsadga muvofiq tashkil etadi.

Shu bois jamoa hayotining bir yagona maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy g'oyaviy yoo'nalganligi uning yetakchi belgisi hisoblanadi.

Har bir jamoa boshqa bir jamoa bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Uning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini to'g'ri baholay olish umumiy va xususiy maqsadning qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatning birligini namoyon etadi hamda bo'linishiga yo'l qo'ymaydi.

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umummilliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan jamoa navbatidagi muhim xususiyatidir.

Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhning yagona ijtimoiy tizimini o'rnatishdagi usuli, ya'ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a'zolari o'rtasidagi ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarligi hissi qaror topadi.

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'otib borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga mansublik hissini paydo bo'lishini uyg'otadi, jamoa bilan munosabatda bo'lishi ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro guruhiy yaqinlik, hissiy birlik yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Ruhiy va hissiy birlik jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyati mazmuniga ular orasidagi hosil bo'lgan ishchilik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma bir tomondan jamoa a'zolari qo'shilgan ishchanlik munosabatlarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhini tashkil etuvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rnini uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy va norasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlari tizimida ko'zga ko'ringan o'rnini egallagan holdagina chinakam

jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (ijroguruhlar) umumjamoa ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo'lgandagina jamoa o'zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhleri qanchalik ahil va inoq munosabatlar zaminidan tashkil topgan bo'lmasin haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olish, jamoa a'zolar o'rtasida ijtimoiy ahamiyatli faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarini o'rnatish olishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga pedagogik rahbarlikning bo'lishidir.

Shunday qilib, jamoa – kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan kuchni tashkil etadi. Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolarining munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysunishi, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradilar.

Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Ayni ko'rsatish, uni ko'rsatish vositasi bo'lib, uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a'zosining tarbiyalash yaxshi samaralar beradi.

Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni hosil qilish, mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror taptirishdan iboratdir. (18)

O'quvchilar jamoasi pedagogik – tarbiyachilar va bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga, an'analarga ega guruh hisoblanadi.

Demak, yuksak darajada uyushtirilgan jamoa o'zida bir necha xususiyatlarni namoyon etadi. Ular quyidagilardir:

1. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi.
2. Birgalikdagi umumiy faoliyatning tashkil etilishi.
3. Majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi.

4. Saylangan umumiy rahbar organga egalik.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga kelishi uchun 4 bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlari dastlab pedagog butun guruhga talab qo'yadi, so'ngra jamoa faollari jamoa a'zolariga talab qo'yadi, so'ngra butun jamoa alohida shaxsdan muayyan tartibda olib borishni talab qiladi va nihoyat, shaxs o'z-o'ziga talab qo'yadi. Ushbu jarayonni sxema tarzda quyidagicha bayon etish mumkin. Yosh avlodni hayotga va mehnatga tarbiyalashda, ularda oliy axloqiy sifatlarni shakllantirishda jamoa ruhida tarbiyalash alohida o'rinni egallaydi. O'quvchi maktab davrida jamoa bo'lib o'qiydi, hamjihatlikda ishlaydi, demak, jamoatchilikning dastlabki tamoyillari bilan tanishadi va ularni o'rganib boradi. Quyida, asosan, jamoatchilik tushunchasiga doir ayrim masalalar ustida fikr yuritamiz.

«Jamoatchilik» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, jamoaviy, umumiylik, birlik degan ma'noni bildiradi. Jamoatchilik tushunchasi dastavval jamoa bo'lib ishlash, xalq uchun mehnat qilish, shaxsiy manfaatni umum manfaatiga bo'ysundirish, bir-biriga beg'araz, o'rtoqlarcha yordam berish degan tamoyilni anglatadi. Jamoatchilikni shaxsning asosiy xususiyati deb qarash lozim. Chunki jamoa hissi, bir tomondan, shaxsni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi tomondan, shaxsning tarbiyalanishida o'zaro dialektik munosabatni vujudga keltiradi. Shaxsni shakllantirishning vositalaridan biri jamoatchilikdir. Jamoatchilik shaxsni shakllantirishning mohiyatini ochishda, jamoa va shaxsning o'zaro munosabat va aloqasini anglashda muhimdir. Shaxsning rivojlanish faoliyatida jamoatchilikning tutgan o'rni va ahamiyati katta ekanligini va uning mazmuni hamda xususiyatini ifodalash ma'quldir. Bu ilgari shaxsni qanday tushunganliklarini va hozir psixologlar, pedagog va faylaso'flar qanday tushunayotganliklarini aniqlash uchun zarurdir.

Jamoatchilik tushunchasini tor ma'noda va keng ma'noda anglash mumkin. Tor ma'noda jamoa ma'lum guruh kishilar yig'indisi, sinf jamoasi va boshqalardir. Jamoatchilikni keng ma'noda tushunish bu, dastavval, uning obyektiv asoslarini

bilishdir. Shaxsning asosiy xususiyati jamoa bo'lib, u obyektiv asosda shakllanadi. Bu esa, dastavval, jamiyat taraqqiyoti va hayot sharoitiga bog'liqdir.

Jamoatchilik nazariyasining bu obyektiv qonuniyligini, albatta, hisobga olish zarur. Jamoatchilik bunday tarixiy taraqqiyotni kuzatish hozirgi jamiyatda jamoatchilikning mohiyati nimadan iborat ekanligini, shuningdek, jamoatchilik mohiyati nima bilan xarakterli ekanligini bilish taqozo etadi. Bizning qarashimizcha, jamoatchilik shaxsning asosiy xususiyatigina emas, balki butun g'oyasi hamdir. Ayrim olimlar jamoatchilikni nazariy jihatdan inkor etadilar yoki bu ikkiyuzlamachilik, yolg'onchilik, munofiqlik qiladilar.

Jamoatchilikning rivojlanish dialektikasi, bir tomondan, obyektiv asosni ko'zlasa, ikkinchi tomondan, jamoaning rivojlanishi, nazariy psixologiyasi sifatida obyektiv moddiy asoslarni aks ettiradi. Jamoatchilik masalasiga nazariy va ijtimoiy nuqtai nazardan qarash, har bir shaxsda jamoatchilikni shakllantirishning obyektiv asoslarini ifodalash zarurdir.

Shuni e'tirof etish kerakki, jamoa va shaxsni shakllantirishning obyektiv asosi va psixologiyasi bo'lishiga qaramay, jamoani shakllantirishda jiddiy xatolik va kamchiliklar mavjuddir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda mehnatkashlar uchun moddiy, ma'naviy va ideologik sharoitlarning yaratilganligiga qaramay, ayrim kishilarda jamoa manfaatlariga, umummanfaatlariga nisbatan shaxsiy manfaat va qiziqishlarni ustun qo'yish hollari kuzatiladi. Ayrim yoshlar jamoatchilik so'zini biladilar va bu haqda ko'p gapiradilar-u, amalda buning aksini qiladilar. Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirish nazariy va amaliy jihatdan juda qiyin jarayondir. Mehnatkashlarda jamoatchilikni shakllantirish ular ongiga eskilik sarqitlaridan to'la xalos etishning muhim vositasidir.

Jamoatchilikda shaxsiy va jamoa manfaati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Jamoatchilik manfaati shaxsiy qiziqishni ham ko'zlaydi, shaxsiy manfaat, o'z navbatida, umummanfaatni ham ko'zlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jamoatchilik o'zining mohiyati bilan o'zining igoizm va individualizm ideologiyasiga qarama-qarshidir. Egoizm va

individualizm ham uning obyektiv va ideologik asoslariga egadir. Agar jamoatchi ma'lum guruh, jamiyatni va uning manfaatini o'zida ifoda etsa, individualchi bir kishininggina manfaat va qiziqishini ifoda etadi. Bu yuqorida keltirilgan jamoatchilikning shakllantirish jarayoni, ruhiy tabiatini ma'lum darajada ochish maqsadga muvofiqligini taqozo etadi.

Bizning fikrimizcha, jamoatchilik kishilarda irodaviy, aqliy va hissiyot jarayonidir. Jamoa hissiyot bo'lib, kishilarning bir-biriga va atroflariga bo'lgan munosabatlarida hamda ichki kechinmalarida namoyon bo'ladi. Biz jamoa hissi haqida gapirganimizda, kishilarning ichki his-tuyg'ularini, o'z jamoasining yutuq va kamchiligi to'g'risidagi ichki kechinmalarini tushunamiz. Shaxsdagi aqliy jarayon bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham, kishilardagi jamoa hissini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Yoshlarda jamoatchilikni shakllantirish bilan bir vaqtda, ularning aqliga, hissiyotiga ta'sir ko'rsatiladi.

Har qanday hissiyot tushunchasining natijasidir. Tushunish bilan bilib olish natijasida yoqimli va yoqimsiz hissiyotlar paydo bo'ladi. Demak, jamoatchilik mazmunini tushunish va bilish orqali kishilarda yoqimli, go'zal va ijobiy tuyg'u-hissiyotlar yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, kishilarga jamoani to'g'ri tushunish va baholashga imkon beradi.

Jamoatchilik insonga xos bo'lib, ichki kechinma natijasida go'zallikka baho berish natijasi bo'lsa, individualizm yakka kishiga xos bo'lib, ichki kechinma asosida go'zallikka baho berish demakdir. Shunday qilib, bu ikki qarama-qarshi ideologiyani boshqa kishilardagi jamoatchilikni baholab qolmay, balki kishilar xulqiga imkoniyatlar ham yaratadi, uning xulqiga individualizmga qarshi hissini uyg'otadi. (13)

Demak, kishilarda jamoatchilikni shakllantirish dialektik jarayon bo'lib, shu shakllantirish bilan bir vaqtda individualizmga qarshi kurashiladi. Bu kurashda yoshlarning ongi, psixikasi individuallikni e'tirof etadi. Bu psixikaning dialektik taraqqiyoti hisoblanadi. Kishi o'zida jamoa hissi paydo bo'lishi bilan individualizmni inkor etadi. Individualizm inkor etish jarayoni psixik va amaliy tajribada ma'lum darajada qiyinchilikni vujudga keltiradi. Bu qiyinchilik bilan

kurashish, so'zsiz irodaviy jarayonga bog'liqdir. Shuning uchun ham jamoatchilikni shakllantirishda irodaviy jarayon birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Individualizm xususiy mulkchilik va raqobat negizi, jamoatchilik esa ijtimoiy mulkchilik negizida vujudga keladi. Ammo jamoatchilikning individualizm ustidan to'la g'alabasi uchun siyosiy tuzum o'zgarishi shart. Shunday qilib, jamoatchilik kishilarning umumiy maqsad yo'lida birgalikda qilgan mehnat va kurash jarayonidagi birlashuvi, jipslashuvi, o'rtoqlarcha o'zaro yordami va birodarligi demakdir.

Lekin ayrim kishilarda eski individualistik axloq ko'rinishlari hamon mavjud bo'lib kelmoqda. Bunday kishilar umumxalq mulkiga o'z shaxsiy mulkidek munosabatda bo'lmaydilar, xalq boyligini oshirish uchun qayg'urmaydilar. Kuchi bilan yaratilgan texnika, qurilish materiallari qarovsiz tashlab yuborilsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ochiqda qolib nobud bo'lsa va boshqa shu kabi zararlar keltirilsa, tashvishlanmaydilar. Bunday kishilarda egoizm va individualizm ko'rinishlari bizning turmushimizga mutlaqo begona bir narsadir.

Kishilarda bir necha asrlar davomida shakllangan munosabatlar va odatlarni albatta, birdan yo'q qilish uchun kishilarni tizimli ravishda jamoa ruhida tarbiyalab borish, ulardagi individualistik ko'rinishlarga qarshi kurashish, ularda o'rtoqlarcha o'zaro yordam munosabatlarini shakllantirish zarurdir. Individualistik sarqitlarni tugatishda va jamoa ruhida tarbiyalashda asosiy masala barcha kishilarda onglilikni yangi jamiyatimiz qurilishi talablari darajasiga ko'tarishdan iboratdir. Yuqoridagilarga asoslanib yoshlarni jamoa ruhida tarbiyalashning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. eng ilg'or korxona jamoalarining ish tajribasidan, ahillik, hamjihatlik, jamoa va o'rtoqlarcha o'zaro yordamlashishda ibratli oilalar, ota-onalar hayotidan misollar keltirish;

2. kishilarning hayotida jamoa bo'lib, bir-birlari bilan do'stona birodarlarcha munosabatda bo'lib yashashlari, mehnat va ijod qilishlari, hayot va turmushlarining doimo go'zal va xushchaqchaq o'tishiga katta yo'l ochib berishini

har tomonlama misollar asosida tushuntirish. Aksincha, kishilar o'z hayotida jamoaga va uning qo'ygan talablariga to'g'ri baho bermay hayot kechirsalar, turmushi ko'ngilsiz, shirasiz va ma'naviy boyliksiz o'tishini uqtirish.

Jamoatchilikning bu xususiyatlari va tamoyillari falsafiy va pedagogik jihatdan keng va teran sharhlab beradi. Ayniqsa, bu tizimda pedagog olim to'g'ri ko'rsatganidek, jamiyat va shaxs munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Uning uqtirishicha, odam va shaxs boshqa-boshqa tushunchalardir. Odam – tirik organizm, gavda, jismdir. Ya'ni, u tabiat farzandi sifatida barcha jonli mavjudotlar kabi tabiat qonunlari bo'yicha o'sadi, yashaydi, ulg'ayadi. Bu jihatdan odamning to'rt muchasi sog' bo'lsa, Imom Zaynuddin G'azzoliy «Kimiyo saodat» asarida aytganidek u hayvonot bilan teng mavjudotdir.

Odamning shaxsligi esa, uning o'zga odamlarga, jamiyatga, vataniga, butun insoniyatga munosabati bilan bog'liqdir. Demak, odam biologik tushuncha, shaxs ijtimoiy tushuncha. Insonlarning tabiiy ehtiyojlari qoralab, faqat ijtimoiy mexanizmga aylantirilishi, tabiatni ham siyosiylashtirish, mafkuraviy shaqatsiz tayziq insonni qadrsizlantirishi ham sho'rolar jamiyati misolida ko'rib turibmiz.

Jamoaning umumiy manfaati bilan bolaning shaxsiy manfaati birlashib, uyg'unlashib ketadi va shu holda bola shaxsiy manfaatiga nisbatan jamoaning maqsadi va manfaati muhimroq ekanligiga, bir kishi hammasi (o'z jamoasidagi hamma odamlarni) o'ylashi, hamma (butun jamoa) esa, shu jamoadagi har bir odamni o'ylashi, g'amxo'rlik qilishi zarurligini tushunish bolaning ongini o'stiradi.

Yanada muhimrog'i, jamoa a'zolarining o'zaro hurmati do'stlikka aylanadi. Endi bola yoki o'smir do'stlarisiz hayot juda zerikarli, mazmunsiz o'tishini anglaydi. Chin do'stlar davrasining tug'ilishi va shakllanishi buyuk fransuz adibi Aleksandr Dyumaning «Uch mushketyor» asarida juda qiziqarli tarixiy voqyealar va ayrim shaxslar do'stlarining boshlaridan o'tgan ajoyib-g'aroyib voqyealar asosida, goh quvnoq, goh ma'yus, goh mayin, goh shiddatli bo'yoqlar va ohanglarda tasvirlab berilgan.

«Jamoatchilik (birdamlik) axloqning asosiy tamoyili sifatida, - deb yozadi Ashurmat Axmedov, - individ (yakka odam)larning bir-biriga bo'lgan

munosabatini, shaxsga va jamoaga bo'lgan munosabatini va, o'z navbatida, jamiyatning shaxsga bo'lgan munosabatini ifoda etadi. Jamoatchilik o'zining axloqiy qiymatiga ham ega, ya'ni shaxs, individ jamoa oldidagi o'z burchini anglashi, jamoaning manfaati uchun ongli ravishda xizmat qilish, o'zaro yordam va hamkorlikka asoslanishi, o'ziga talabchan bo'lishi va jamoaga ishonishi kerak». Alisher Navoiy, Jomiy, Yan Amos Komenskiy, N.G.Chernishevskiy, A.S.Makarenkoning pedagogik merosini yaxshi bilgan olim Ashurmat Axmedov bu yerda jamoatchilikning ilmiy ta'rifini bergan. Bu ta'rifda aytilgan har bir tamoyil haqida keng va teran fikrlarni aytish mu

Xulosa

«Ta'lim to'g'risida qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dastur»i talablarini amalgam oshirish jarayonida yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Shunday ekan ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi , ijodiy izlanuvchan , yuqori malakali , turli soha egalarini tayyorlash kasb – hunar ta'limi oldiga qo'yiladigan talablarga mutunosib insonlar qilib shakllantirish ular shaxsiga yangicha yondashish hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy talablaridan biridir. Ayniqsa mehnat va kasb ta'limi sohasida bilim olgan bo'lajak mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari mehnat faoliyatini, mahoratini oshirish oily ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Bu muammoni hal qilishning birdan bir yo'li mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari mahoratini, faoliyatini oshirish eng avvalo pedagogik shart- sharoitlar hamda oily ta'lim muassasidagi barcha imkoniyatlardan kelib chiqib, o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olinganligini ham nazarda tutadi.

Hammamizga ma'lumki mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy mahorati eng avvalo talabalarni o'qitish, bilim berish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ta'lim beruvchilar saviyasi bilan belgilana

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent., 2000.-245 b.
2. S.Ya. Bato'shev. Professionalnaya pedagogika. "Professionalnaya obrazovaniye". Moskva. 1997. 511 s.
3. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
4. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev, «Pedagogika» «O'qituvchi» - 2001 .
5. Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot "Ma'naviyat asoslari" darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. "Abu Ali ibn Sino". Toshkent. 2001.
6. Bo'ri Ziyomhammadov, Shoira Abdullayeva. Pedagogika. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2000.- 127 b.
7. A.Nishonov, B. Haydarov va boshqalar. Baholash metodlari. Toshkent. Osiyo taraqqiyot banki. 2003. - 156 b.
8. N.X.Avliyoqulov. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. "Muallif" 2001.
9. Pedagogika nazariyasi .Maro'zalar matini.To'zuvchilar:prof. Xasanboev J, P.f.n. Usmonboeva M. T.TDPU 2001y.
10. Pedagogika kursi Tursonov Z. Nishonaliev I. T. «Uqituvchi» 1997 y.
11. Ismoilva Z.K. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar . T Fan. 2001.
12. Didaktika o'quv qo'llanmasi. Rasulova . YO .T 2001y
13. "Mustaqillik" izohli ilmiy ommabop lug'at. T. 2000y
14. Kaykovus "Qobusnoma", T. 1991 y.
15. YUsuf Xos Xojib. "Qutadg'u bilig" 1990 y.
16. Ma'rupov, Nurmammedov. "Qalb quyosh murabbiy". T. 1987
17. YU.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktablarida o'qitish metodlari. T.1990
18. Zunnunov A., va boshqalar - «Pedagogika tarixi» oliy o'quv yurtlari uchun Darslik. – Toshkent, «SHarq» matbaa konserni, 2000 yil.
19. www.ziyonet.uz
20. www.arxiv.uz
21. www.ziyouz.com